

## **QORAMOLLAR TEYLERIOZINI PIROPLAZMOZDAN FARQ QILUVCHI KLINIK BELGILARI**

**Kamolov. F.B**

SamDVMCHBU TF assistenti

**Tuxtamishov. N.S**

SamDVMCHBU TF assistenti

**Mingishev. Y.Y**

SamDVMCHBU TF assistenti

**Annatotsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Respublikamiz chorvachiligiga jiddiy zarar yetkazayotgan, qoramollarning piroplazmidozlari mamlakatimiz hududidagi nasli qoramollarning qon parazitar kasalliklar bilan kasallanishi, shu kasalliklarning kelib chiqish sabablari, undagi iqtisodiy zararlari va ikki kasallikning bir-biridan farqiluvchi klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari o'rganildi hamda oldini olish chora tadbirlarni amalga oshirish tavsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Boophilus calcaratus*, *Hyalomma detritum*, *Hyalomma anatolicum*, *Theileria annulate*, *Piroplazma bigeminum*.

**Abstract:** In this scientific article, the piroplasmidoses of cattle, which cause serious damage to the livestock of our country, the blood parasitic diseases of the breeding cattle in the territory of our country, the causes of the origin of these diseases, their economic losses, and the different clinical signs and pathologoanatomical changes of the two diseases were studied. information on recommendations for the implementation of preventive measures is given.

**Key words:** *Boophilus calcaratus*, *Hyalomma detritum*, *Hyalomma anatolicum*, *Theileria annulate*, *Piroplazma bigeminum*.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamiz aholisining qoramollari orasida o‘tkir oqimda kechuvchi Teylerioz hamda Piroplazmozlar intoksikatsiya , anemiya , oriqlash kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladigan transmissive kasalliklardir . Bularga qarshi kurashish veterinariya fani va amaliyotida tinmay mehnat qilib kelayotgan xodimlarning ham dolzarb vazifasi hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi** Qoramollarning piroplazmidozlarining kechishi, klinik belgilari, epizootologiyasi, davolash, profilaktika chora-tadbirlarini olib borish va tahlil qilish..Respublikamiz hududida bu ikki kasallik Teylerioz va Piroplazmidoz keng tarqalgan bo‘lib , bugungi kunda katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda . Ilmiy adabiyotlardan ma‘lum bo‘lishicha **piroplazmozni** tarqatuvchi kanalar bir egalik **Boophilus calcaratus** va **teyleriozni** tarqatuvchi ikki egalik **Hyalomma detritum** hamda uch egalik **Hyalomma anatolicum** kanalari tomonidan tarqalishi aniqlangan . Teylerioz qo‘zg‘atuvchisi *Theileria* oilasi *Theileria annulate* , Piroplazmoz qo‘zg‘atuvchisi *Babesiidae* oilasi *Piroplazma bigeminum* . Bular taloqda , jigarda , buyrakda va boshqa organlarda qonning eritrositlarida rivojlanadi . Qo‘zg‘atuvchilarni tarqatuvchi kanalar *Boophilus calcaratus* va *Hyalomma detritum* , *Hyalomma anatolicum* kanalari issiq va namgarchilik yuqori bo‘lgan joylarda keng tarqalgan bo‘lib , bu kanalar 2-5 kunligidayoq qoramollarni qoni so‘rish orqali qo‘zg‘atuvchilarni teri ichiga tushiradi . Natijada teri ichiga tushgan qo‘zg‘atuvchi qon orqali barcha parenximatov organlarga tarqaladi . Kasal qoramollar qonidan tayyorlangan surtmalarni mikroskop ostida kuzatganimizda teyleriozda eritrositlarda yumaloq , oval , piroplazmozda eritrositlardan katta amyobasimon , noksimon ko‘rinishlarda bo‘lish holatlari kuzatildi.

### **Kasallikning klinik belgilari**

**Teylerioz** bilan kasallangan hayvonda quyidagi belgilar namoyon bo‘ldi; konyuktiva , burun bo‘shlig‘i va qin shilliq pardasida gipermiya keyinchalik esa anemiya va sariqlik , qovoqlar shishib , ko‘zdan yosh oqishi , og‘ir holatlarda yelin terisida va orqa teshik (anus) atrofida qon quyilishlar paydo bo‘ladi. Tana haroratni ko‘tarilishi (41-42 C) limfa tugunlarning 2-3 gohida 4-5 barobargacha kattalashuvi va ularni paypaslaganda og‘riq sezishi , yurak urishini va nafas olishi tezlashadi. Quruq va qisqa yo‘taladi , ishtahasi yo‘qolishi , umumiy holsizlanish , junlarini xo‘rpayishi , ichaklar harakati avval kuchayadi ichi ketadi , keyin esa susayadi atoniya va ich qotishi , shirdonda qon quyilishlar , tezagi quruq va shilimshiq moddalar bilan qoplangan bo‘ladi , siyishga qiynaladi qisqa va odatdagidan quyuqroq bo‘lishi tajribalarda kuzatildi .

**Pirop plazmoz** bilan kasallangan hayvonda quyidagi belgilar namoyon bo‘ldi; tana haroratni ko‘tarilishi 40.6-41 C , holsizlanish , ishtaha yo‘qolishi , puls va nafas olishning tezlashishi , shilliq pardalarda qon quyilish va sariqlik holatlari namoyon bo‘lishi , siydigi qon rangda bo‘lishi gemoglobinuriya , kasal qoramolda muskullarining qaltirashi , qorin va ichaklarni atoniyasi ham kuzatildi .

**Patologoanatomik o‘zgarishlar** Bu kasalliklar bilan kasallanib o‘lgan yoki majburiy so‘yilgan hayvonlarni yorib ko‘rilganda **teyleriozda** hayvon gavdasi oriqlagan , yurak , jigar , buyrak, va taloqda qon quyilishlar bo‘lishi , 2-3 marta kattalashganligi va yumshab qolganligi , ko‘rak bo‘shlig‘ida 0.5 litrgacha zardobsimon suyuqlik to‘planishi , shirdonda qon quyilishlar , qatqorin quruq , qattiq ozuqa bilan to‘lishi , shilliq pardalarda qon quyilishlar va sarg‘ayishlar , go‘shtda qizarishlar va sarg‘ayishlar holatlari bo‘lishi kuzatildi. **Pirop plazmozda** hayvon gavdasi oriqlagan , shilliq pardalar rangini sarg‘ayishi , teri osti klechatkasi va yog‘lari sariq rangda bo‘lishi , go‘shiti rangsiz bo‘lishi , jigar ,taloq , buyrakda qon quyilishlar , 2-3 barobargacha kattalashuvi va yumshoqlashishi , yurak ham kattalashuvi epikardda qon quyilishlar , ingichka ichakning shilliq qavati pardalarida qon quyilishlar , siydik

xaltasi 2-3 barobargacha kattalashib qonsimon zardob bilan to‘la bo‘lishi holatlari kuzatildi.

**Profilaktika** Teylerioz va Piroplazmozni tarqatuvchi kanallardan qoramollarni himoya qilish . Buning uchun salqin tushishi bilan fermalar va molxonalar atrofini tozalash , dezakarizatsiya ishlarni olib borish , binolarni go‘nglardan tozalash va dezinfeksiya ishlarini olib borish , kanallarni ko‘payishi uchun qulay bo‘lgan biotoplarni yo‘qotish va zaruriy chora tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Kasalliklarni oldini olish maqsadida kultural vaksinalaradan 15 kunda 1 marta qoramolning har 100 kg tirik vaznga 5 ml dan “Polikarb “ preparatidan terisi ostiga yuboriladi . Bundan tashqari teylerioz kasalligini oldini olishda «Teyleriozga qarshi suyuq kultural vaksina» dan yilning salqin (dekabr, yanvar, fevral) oylarida har 1 bosh qoramolning teri ostiga 1,0 ml.dan qo‘llash tavsiya etiladi. Yilning iliq kunlari kirib kelishi bilanoq kanallarga qarshi akaritsid preparatlardan biri bilan qo‘llanmasi asosida qoramollar yuvib, chumiltirilib turiladi.

## **XULOSA**

Yilning issiq fasliga kelib veterinariya-sanitariya talablariga mos inshootlar qurish, yozgi ayvonlarning ustini issiqlik o‘tkazmaydigan qamish va shox shabbalar bilan yopish maqsadga muvofiq. Kasalliklarni davolashda 1 kg tirik vazni hisobiga 2 mg/kg dan diamidin, 5 mg/kg dan berenil, azidin yoki qoramolni har 100 kg tirik vazniga 2 ml dan imizol yoki imisan preparatlarini qo‘llash tavsiya etiladi, qoramollarni profilaktika qilish uchun har 15 kunda 1 marta 100 kg tirik vazni hisobiga 5,0 ml.dan polikarb, uzbekarb preparatlaridan qoramol teri ostiga qo‘llaniladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. A.G‘. G‘afurov , N.J.To‘rabayev , O‘. I. Rasulov Qoramollarning piroplazmidozlari . Samarqand – 2003 17 b , 31 b
2. I. O‘.Rasulov va boshqalar Qoramollarni teylerioz kasalligidan asraylik VETERINARIYA MEDITSINASI ilmiy ommabop jurnal №156 , 2020 – 15-18 b.

3. P.S. Haqberdiyev , F.B.Ibragimov Veterinariya protozoologiyasi va araxnoentomologiyasi . Samarqand 2020 62-75 b.
4. G‘afurov A.G‘., Davlatov R.B., Rasulov O‘I. Qishloq xo‘jalik hayvonlarining protozoy kasalliklari “Zarafshon” nashriyoti -107 b.
- 5.Imomov N. Qashqadaryo viloyati hududlarida poliamidin-p preparatini veterinariya amaliyotiga joriy qilish. Veterinariya 2011, № 5 – 13-14.

